

## O'CHMAYDIGAN IZLAR HAM BO'LADI

### IZLAR

#### Hikoya

Qahraton qishning ayozli kunlari. Oqshom. Osmondan chirpirak bo'lib aylanib yog'ayotgan kapalak qor uylarning qoshida o'rnatilgan tungi chiroqlar shu'lasida ajib bir tovlanish berib, yerga ohista qo'nmoqda. Issiqqina uyida derazadan qorni kuzatib turgan Shahloga onasi kech bo'lganligini, joyiga kirib uxlashini aytdi.

Kechasi bilan yoqqan pag'a-pag'a qor yerga oppoq va momiq gilam kabi to'shalgan. Erta tongda onasi bilan hovliga chiqqan Shahloga qordagi izlar g'oyat sirli bo'lib tuyuldi va onasini savolga tuta boshladi:

- Bu nimaning izlari?
- Bu mushukning izlari.
- Mana bular-chi?
- Bu yerdan it mushukni quvib o'tgan bo'lsa kerak, hoynahoy.
- Qarang, mana bu izlar boshqacha ekan, qandaydir chiziqlarga o'xshab ketarkan?-deya Shahlo izlar oldiga cho'nqayib o'tirib oldi.
- Ha, qizim, bu izlar boshqacha. Bu mittigina chumchuqlarning izlari, ular don axtarib shu yerga kelishgan bo'lsa kerak.

Shunda Shahlo jonzodlarning izlari bilan tanisharkan, beixtiyor o'zining ham izlarini ko'rgisi keldi va birdan ortiga o'girildi. Ortida oppoq qorning yuzasida jajji bir iz va uning oldida kattaroq iz turganligini ko'rdi. Yugurib bordida, izlarni ko'rsatib:

- Mana bu kichkinasi mening izim, bunisi sizniki, shundaymi?-dedi kulgichlari sevinchdan kulib turgan Shahlo.
- Ha, - dedi oyisi mayin tabassum bilan qiziga boqarkan.
- Qanday chiroyli, - dedi Shahlo o'z iziga o'zi mahliyo bo'lib.
- Qizim, aslida bundan ham chiroyli izlar bor. Ular nafaqat qorda, balki qor erib ketgandan keyin ham o'chmay turaveradi. Bilki, bu izlar o'z hayoti davomida barchaga yaxshiliklar qilgan, o'zidan bog' qoldirib, el-yurtining farovonligi uchun hissa qo'shgan olijanob, kamtar, mehribon insonlarning izlaridir.

Shahlo onasining gaplarini tinglar ekan:

- Hali mening izlarim ham o'chmaydigan, eng chiroyli izlar bo'ladi, - deya qo'shib qo'ydi.

Qizining kutilmaganda aytgan bu ibratli gaplaridan onaning ko'zlarida beixtiyor yosh aylandi va "Aytganing kelsin, qizalog'im"-deya uni bag'riga bosdi.